

## 2020 yilning yanvar oyida Toshkent viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar oyida Toshkent viloyati korxonalaridan 4726,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 102,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 24,4 %, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,9 %, iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, , elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 3,7 % ga kamayish, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 10,7 % ga, qayta ishlash 2,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohalarida 0,1 % ga o'sishi kuzatildi.

### Yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**



4,1%



**Ishlab chiqaradigan sanoat**



83,5%

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**



12,1%



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish**



0,3%

\* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020 yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 195,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ni tashkil etdi.








### 2020 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oyiga nisbatan, %
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, Indeksi %da	4726,6	102,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash	195,0	110,7
shu jumladan:		
Ko'mir va lignit qazib olish	66,0	132,2
Metal rudalarini qazib olish	117,1	96,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlashda xizmatlar	11,9	101,3

\* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari (qayta ishlash sanoati)

2020 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3945,6 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 102,6 % ini (jami ishlab chiqarishdagi ulushi 83,5 %)ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oyiga nisbatan,%
Qayta ishlash sanoati		3945,6	102,6
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish		442,0	95,6
To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish		346,6	114,9
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish		6,1	74,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish		4,9	117,6

### Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari (qayta ishlash sanoati)

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oyiga nisbatan, %
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish		1,7	55,6
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish		321,7	94,1
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish		8,3	94,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish		179,5	102,0
Metallurgiya sanoati		2184,1	95,0
Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish		210,6	115,6



**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan  
sanoat tarkibi 2019 yil yanvarga nisbatan % da**



**Yuqori texnologiyali ishlab  
chiqarish**

**71,8 %**



**O'rta-yuqori texnologiyali  
ishlab chiqarish**

**115,3 %**



**O'rta-quyi texnologiyali ishlab  
chiqarish**

**102,2 %**




**Quyi texnologiyali ishlab  
chiqarish**

**99,1 %**


### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 570,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,1 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oyiga nisbatan, %
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash		570,8	96,3

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oyiga nisbatan, %
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish		15,2	100,1

### Ishlab chiqarilgan xalq iste'mol mollari

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 754,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 6,9 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 16 % ni tashkil etdi.

#### 2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2019-yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 48,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,3 % ni (2019-yil yanvar oyiga nisbatan 110,1 %) ni tashkil etdi.



## 2020 yil yanvar oyida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 987,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 98,1 % ga o'sishni ta'minladi.

2020 yil yanvar

2019 yil yanvar

 Boshqa korxonalar



 xorijiy investitsiyalari  
ishtirokidagi korxonalar

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,9 % ni tashkil etdi. Toshkent viloyati bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni 667 tani tashkil etadi, shundan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarayotgan 265 ta korxonalar mavjud.



### 2020 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

	2020 yil yanvar mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oyiga nisbatan, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>4726,6</b>	<b>102,5</b>
Shaharlar:		
Nurafshon	88,1	100,2
Olmaliq	1703,4	101,1
Angren	364,1	108,3
Bekobod	556,1	90,1
Ohangaron	58,3	96,8
Chirchiq	360,7	112,5
Yangiyo'l	63,9	89,6
Tumanlar:		
Oqqo'rg'on	68,4	105,5
Ohangaron	11,7	72,5
Bekobod	28,2	100,8
Bo'stonliq	179,4	108,2
Bo'ka	23,8	65,7
Quyichirchiq	29,0	96,7
Zangiota	343,8	120,4
Yuqorichirchiq	154,0	110,8
Qibray	333,2	106,9
Parkent	31,8	101,8
Pskent	28,7	87,0
O'rtachirchiq	34,8	95,8
Chinoz	36,2	101,3
Yangiyo'l	85,4	103,5
Toshkent	143,8	105,2

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti  
turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)**

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2020 yil yanvar	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------	-----------------	-----------------	--

**Qayta ishlash sanoati**

Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	ming tonna	<b>13,9</b>	<b>64</b>
Aroq	ming,l. 100% spirt	942	81,1
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	ming l. 100% spirt	5,3	102,5
Uzum vinosi tabiiy	ming l.	188	56,3
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	ming l.	4582,3	126,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni	tn.	21281,8	103,3
Tozalangan o'simlik yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	tn	564	94,1

**Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari  
(qayta ishlash sanoati)**

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2020yil yanvar	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------	-----------------	----------------	--

**Qayta ishlash sanoati**

Paxta tolasi	ming tn.	2,324	32,0
Paxta chigiti	ming tn.	3,876	32,5
Paxta tiviti (lint)	tn	242	36,6


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2020yil yanvar	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------	-----------------	----------------	--

Elektr energiya	mln.kvt/s	1611,8	96,3
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi )	ming gkal.	456,1	102,2

## Yanvar oyida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,4 % ulushini), Bekobod shahar (11,8 %), Chirchiq shahar (7,6 %), Angren shahar (6,0 %), Qibray tumani (6,7 %), Zangiota tumani (6,3 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda.





### davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va maxalliy ahamiyatga ega korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da

Hududlar kesimida Davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ishlab chiqarishdagi ulushlari Olmaliq (98,2 %), Bekobod (97,1%), Angren (67,5 %) va Nurafshon (73,6 %) shaharlariga to'q'ri keladi.




**Davlat ulushi yuqori  
bo'lgan korxonalar ulushi**

**Maxalliy ahamiyatga  
ega korxonalar ulushi**

Davlat ulushi eng kichik ulush Yangiyo'l (5,4 %), Toshkent (0,5 %), Chinoz (5,3 %) Quyichirchiq (2,0 %) tumanlarida kuzatildi.

### 2020 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning viloyat darajasi (1606,9 ming so'm), Olmaliq shahrida (12993,2 ming so'm), Bekobod shahrida (5804,3 ming so'm), Ohangaron shahrida (1541,1 ming so'm) va Chirchiq (2294,5 ming so'm) shahrida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Aholi jon boshiga xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi viloyat darajasi 256,3 ming so'm bo'lgani holda Zangiota tumanida 402,6 ming so'mni, Ohangaron shahrida 688,2 ming so'mni, Yangiyo'l shahrida 442,8 ming so'mni, Chirchiq shahrida 434,1 ming so'mni tashkil etdi.

### Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


	mlrd. so'm	Jami sanoatga nisbatan ulushi, %	2019-yil yanvar- oyiga nisbatan, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>754,0</b>	<b>16,0</b>	<b>106,9</b>
<b>Shaharlar:</b>			
Nurafshon	11,6	13,2	92,9
Olmaliq	17,1	1,0	96,7
Angren	24,5	6,7	111,8
Bekobod	16,8	3,0	92,6
Ohangaron	26,0	44,7	140,0
Chirchiq	68,2	18,9	97,0
Yangiyo'l	26,8	41,9	86,5
<b>Tumanlar:</b>			
Oqqo'rg'on	38,6	56,4	125,9
Ohangaron	6,7	57,1	109,9
Bekobod	10,3	36,4	102,6
Bo'stonliq	56,5	31,5	102,7
Bo'ka	14,1	59,3	116,0
Zangiota	79,5	23,1	123,1
Yuqorichirchiq	72,7	47,2	103,0
Quyichirchiq	15,7	54,3	134,9
Qibray	95,1	28,5	119,1
Parkent	20,3	63,9	95,6
Piskent	16,2	56,4	98,3
O'rtachirchiq	19,9	57,1	111,1
Chinoz	17,1	47,4	114,7
Yangiyo'l	28,7	33,6	91,5
Toshkent	71,7	49,9	98,9

### 2020 yilning yanvar- oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ulushi, (%da)



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 93,6 %), Parkent tumani (88,7 %), Quyichirchiq (51,6 %) va Yuqorichirchiq (75,9 %). Shu bilan birga, eng kichik ulush Olmaliq shahri (1,7 %), Bekobod shahri (2,8 %), Angren shahri (9,5 %), Ohangaron (12,3 %) shaharlarida kuzatildi.






Toshkent viloyati bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalar soni 8823 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (24,9 %) ga oshgan, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar soni 7678 ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (23,9%) ga oshgan, faoliyatini vaqtincha to'xtatgan sanoat korxonalar soni 1145 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (31,9 %) ga oshgan, yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni 127 ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (48,2 %) ga kamaygan, faoliyati to'xtatilgan sanoat korxonalar soni 6 ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (33.3 %) ga kamaygan.

### 2020 yil yanvar oyida jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalari soni

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan eng ko'p sanoat korxonalari Zangiota (1327 ta bundan 1158 ta faoliyat ko'rsatadi), Qibray (838 ta bundan 697 ta faoliyat ko'rsatadi), Toshkent (778 ta bundan 668 ta faoliyat ko'rsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.



Eng kam sanoat korxonalari Oqqo'rg'on (198 ta, bundan 167 ta faoliyat ko'rsatadi), Bekobod (174 ta, bundan 154 ta faoliyat ko'rsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi

**Sanoat statistikasi bo'limi**

**R.Avliyakulova**  
(71)230 86 66